

OLIY TA'LIMDA RUS TILINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGI

Dzhumayeva Nargiz Irkinovna
O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi,
O'zbek va xorijiy tillar kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
dzhumayevanargiz2013@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada rus tilini o'qitish jarayonida interfaol o'qitish usullarini integratsiyalash masalalari bayon etiladi. Interfaol ta'lif oliv ta'lim talabalarining kognitiv faoliyatini tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, aniq va bashorat qilinadigan maqsadlarni o'z ichiga oladi: talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, g'oyalarni shakllantirish, mustaqil izlanish faoliyatini tarbiyalash.

Kalit so'zlar. O'qitish, integratsiya, oliv ta'lim, maqsad, mustaqil, interaktiv, talabalar, qobiliyat, samaradorlik.

YÜKSEK ÖĞRETİMDE RUS DİLİNİN ÖĞRETİMİNDE İTERAKTİF YÖNTEM ENTEGRASYONUNUN ETKİNLİĞİ

Dzhumaeva Nargiz Irkinovna,
Özbekçe ve yabancı diller bölümü doçenti, pedagojik bilimler adayı,
Özbekistan uluslararası islam akademisi

Özet. Bu makale, etkileşimli öğretim yöntemlerinin Rus dilini öğretme sürecine entegrasyonunu açıklamaktadır. İnteraktif eğitim, yüksek öğrenim öğrencilerinin bilişsel faaliyetlerini organize etmenin özel bir şeklidir ve açık ve öngörülebilir hedefler içerir: öğrencilerin entelektüel yeteneklerinin geliştirilmesi, bağımsız düşünme, yaratıcı potansiyelin geliştirilmesi, fikirlerin oluşumu, bağımsız araştırma faaliyetlerinin eğitimi.

Anahtar kelimeler. Öğretim, entegrasyon, yüksek öğrenim, amaç, bağımsız, etkileşimli, öğrenci, yetenek, verimlilik.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕГРАЦИИ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Джумаева Наргиз Иркиновна,
Междуннародная исламская академия Узбекистана, доцент кафедры
узбекского и иностранных языков, кандидат педагогических наук

Аннотация. Данная статья рассматривает вопросы интеграции интерактивных методов обучения в процессе преподавания русского языка. Интерактивное обучение является специальной формой организации познавательной деятельности студентов высшего образования и подразумевает конкретные и прогнозируемые цели: развитие интеллектуальных способностей студентов, самостоятельности мышления, критичности ума, развитие творческого потенциала, генерирования идей, способности к самостоятельной поисковой деятельности.

Ключевые слова. Обучение, интеграция, высшее образование, цель, самостоятельный, интерактивный, студенты, способности, эффективность.

EFFICIENCY OF INTEGRATING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING RUSSIAN IN HIGHER EDUCATION

Djumayeva Nargiz Irkinovna,

*International Islamic Academy of Uzbekistan, associate professor of the
Department of Uzbek and foreign languages, candidate of pedagogical sciences*

Abstract. This study explores the integration of interactive teaching methods in the process of Russian language instruction at the higher education level. Interactive learning represents a distinctive approach to structuring students' cognitive engagement, characterized by clearly defined and anticipated objectives. These objectives include the development of students' intellectual capacities, independent reasoning, critical thinking skills, creative potential, idea generation, and the ability to conduct autonomous research activities.

Keywords. Learning, integration, higher education, objectives, independence, interactive methods, students, cognitive abilities, efficiency.

Bugungi tezkor zamonda ta'lif samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb qaralmoqda. "Interfaol" tushunchasi ingliz tilidagi "interakt" (rus tilidagi "interaktiv" so'zidan olingan bo'lib), lug'aviy nuqtai nazardan o'zaro, ikki taraflama harakat qilmoq, ish ko'rmoq ma'nolarini bildiradi [1, 46].

Interfaol ta'lifning mohiyati shundan iboratki, o'quv jarayonida har bir o'quvchi-talaba masxara qilishdan qo'rmasdan, o'z fikrini erkin bayon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalar bir-biriga bog'liq bo'lib, bir vaqtning o'zida shaxsiy mas'uliyatni his qiladilar, faoliyatga hissa qo'shadilar, guruhdagi odamlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Interfaol ta'lif individual ish, juftlik va guruh ishlari, rolli o'yinlar, ijodiy va tadqiqot ishlari o'z ichiga oladi.

Quyida biz O'zbekiston xalqaro islam akademiyasida rus tili darslarida interfaol metodlardan qo'llanilgan holda o'tilgan amaliy darslardan namuna keltiramiz.

"Sinkveyn" metodi - besh misradan iborat qofiyasiz o'ziga xos she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan hodisa haqidagi ma'lumotlar o'z so'zlarini bilan umumlashtiriladi va tavsiflanadi. Birinchi qatorda mavzu bir so'z bilan atalsa, ikkinchisida ikkita sifatdosh bilan ifodalanadi, uchinchisida mavzu doirasidagi harakat uch so'z bilan tavsiflanadi. To'rtinchi qator - mavzuga munosabatni tafsiflovchi to'rt so'zli ibora. Oxirgi qator sinonimdir (mavzuning mohiyatini takrorlaydigan bitta so'z) [2, 107 б.].

Rus tilidan amaliy mashg'ulotlar davomida "Sinkveyn" metodi qo'llanilganda o'qituvchi talabalarga sinxron yozishni taklif qiladi.

Natija shunday bo'lishi mumkin: **Узбекистан.** (Текст «Узбекистан»)

Красивый, современный.

Производит, продаёт, покупает.

Интересует многих туристов.

Государство.

1. *Мама.*

2. *Добрая, нежная.*

3. *Любить, уважать, беречь.*

4. *Я подарил маме цветы.*

5. *Самый нежный человек в мире.*

1. *Мария Петровна.* (Из рассказа Ю.Бондарева «Простите нас!»)

2. *Вежливая, строгая.*

3. *Изменилась, состарилась, обрадовалась.*

4. *Мария Петровна помнит всех своих учеников.*

5. *Учитель с большой буквы.*

Bunday ijodiy topshiriq o'tilgan materialni mustahkamlash uchun beriladi. Shu bilan birga, o'quvchilar mavzu va hodisaga oid barcha bilganlarini umumlashtiradi, o'xshatishlar chizadi, sinonimlarni tanlaydi, so'z boyligini kengaytiradi.

Akademiyada rus tilidan amaliy darslarda asosan faol o'qitish usullaridan ham foydalaniladi, chunki o'yin yangi materialni yaxshiroq va osonroq o'zlashtirishga imkon beradi. Talabalar darslarni o'yin shaklida o'tkazishni juda yaxshi ko'radilar, chunki o'yin haqiqatni bilish va o'zlashtirishni ta'minlaydi, shaxsnинг intellektual, hissiy va axloqiy rivojlanishiga yordam beradi.

Krossvordlar. O'quv maqsadlarida krossvordlardan foydalanib, o'quvchilarga quyidagi mazmundagi qisqa shakldagi ta'limga ma'lumotlarini taqdim etish foydalidir. Krossvordlar didaktik intellektual o'yin sifatida yaxshi, chunki ular aqliy qobiliyatlarni, diqqatni jamlashni rivojlantiradi, xotirani faollashtiradi va o'z-o'zini tarbiyalashga yordam beradi.

Krossvordlarni mustaqil tuzish talabalarda o'rganilayotgan hodisaning asosiy, muhim belgilarini aniqlash, o'rganilayotgan o'quv materiali bo'yicha malakali savollarni shakllantirish qobiliyatini rivojlantiradi.

"*Kim tezroq?*". Rus tili darslarida talabalarni ikki jamoaga bo'lish orqali estafeta musobaqasi o'tkaziladi, unda "Oila", "Tomoshabin", "Shahar" va hokazo leksik mavzular bo'yicha jumlalarni doskada tezroq va xatosiz yozish talab etiladi. Vazifani osonlashtirish uchun talabalar javob yozishi kerak bo'lgan savollarni berish mumkin.

Masalan, "*Shahar*" mavzusida quyidagi savollar bo'lishi mumkin:

1. Qaysi transport turidan foydalanasiz?
2. Kuniga necha marta mashina haydash kerak?
3. Sayohatga qancha vaqt sarflaysiz?
4. Universitetga borish uchun qaysi ko'chadan borasiz?
5. Shaharning qaysi joylariga borishni yoqtirasiz? va h.k.

Shunga ko'ra, milliy guruhlarda o'quvchilar doimiy ravishda tushuntirish va tarjima lug'atlaridan foydalanadilar. Lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlaniradi, yangi tushunchalar bilan ishlashni osonlashtiradi va o'quvchilarning so'z boyligini boyitadi, bundan tashqari, har bir o'quvchi boshqalarga qaraganda tezroq kerakli so'zni topishga harakat qiladi, bu esa sog'lom raqobat muhitini yaratadi.

"*Davra suhbati*". "*Davra suhbati*" metodi o'quv jarayonida yuqori samara beradi va undan kafedramizning ko'plab o'qituvchilari ham foydalanadilar. Davra suhbatida materialning muammoli masalalarini muhokama qilish orqali talabalar nutq so'zlashni o'rganadilar, o'z nuqtai nazarini himoya qiladilar va shu bilan ularning so'z boyligini boyitadilar. Birinchi kurs talabalarini o'yinlarda katta zavq bilan ishtiroy etadilar, o'zlariga yuklangan vazifani bajarish bilan birga, eng qisqa vaqt ichida eng yaxshi tarzda vazifani bajarishga harakat qilishadi. "Ким биринчи".

Masalan, "*Otlarning grammatik rod kategoriyasi*" mavzusida o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lishlari va doskada bellashishlari taklif qilinadi. Talabalar o'yin texnologiyalarini bajarishdan zavqlanishadi.

муж.род	жен.род	сред.род	общий род

Shuningdek, rus tili darslarida jismoniy mashqlar va musiqali daqiqalar mashg'ulotlarini o'tkazish tavsiya etiladi, bu ham o'quvchi-talabalarni faollashtiradi va jonlantiradi.

"*Ko'zlar uchun mashq. Doira*". Katta doirani tasavvur qiling. Ko'zlariningizni uning atrofida, avval soat yo'nalishi bo'yicha, keyin esa teskari yo'nalishda aylantiring.

"*Kelishiklar*" («*Padeji*») mavzusi bo'yicha quyidagi mashq bajarish mumkin. Talabalar ham rus tilida she'rni yoddan aytish bilan bir qatorda pantomimik mashq bajaradilar:

Именительный подпрыгнул,

А Родительный летал.

Дательный полез на горку.

А Винительный устал.

Наш Творительный поплавал,

А Предложный убежсал.

Падежи нам все нужны

И при этом все важны.

Ko'pincha o'yinli texnologiyalar amaliy mashg'ulotlarning ikkinchi yarmida, talabalar charchagan va ularning faoliyati pasaygan, diqqatlari tarqalib ketganda o'tkaziladi. Bu vaqtida o'yin aqliy faoliyatni safarbar qiladi va shu bilan birga charchoqni ketkazadi. Talabalar so'z boyligini to'plashlari kerak, hamma ham kuch sarflamasdan yangi so'zlarni o'zlashtira olmaydi. Interfaol ta'lism usullaridan foydalangan holda, til va nutq birliklari turli modellarda qayta-qayta qo'llaniladi: chizmalar, diagrammalar, jadvallar, qo'shiq motivlari asosida yangi so'zlarni yodlash, ya'ni eslab qolish uchun zarur bo'lgan so'zlarni qo'shiq aytish orqali og'zaki rus tili nutqi rivojlantiriladi.

Ta'limganing barcha interfaol usullari asosiy vazifani - qanday o'rghanishni o'rgatish uchun mo'ljallangan. Vaziyatni tahlil qilish, ma'lumotni mustaqil izlash, mantiqiy zanjirni qurish va asosli qaror qabil qilish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhimroqdir.

Demak, ta'lim jarayonini tashkil etishda auditoriyani faollashtirishga asoslangan yondashuvga o'tish o'quv jarayonida darslarni o'tkazishning faol va interaktiv shakllaridan (kompyuter simulyasiysi, biznes va rolli o'yinlar, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, psixologik treninglar va boshqalar) keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Rus tili darslarida interfaol metodlarni qo'llash asosida ta'limgan samaradorligi oshadi va bu o'z o'rnida quyidagi xulosalarni qilishga imkon beradi:

1. Talabalar yangi bilimlarni shakllantirishga o'z tajribasi orqali yondashishga ruxsat berilsa, muayyan ko'nikma va malakalarni yaxshiroq o'zlashtiradi.

2. O'qituvchi talabalarning bilim olish usullarini faol qo'llab-quvvatlasa, ular yaxshiroq o'rghanadilar.

3. O'qituvchi, bir tomonidan, oson o'rghanish uchun mavzuni tuzsa, ikkinchi tomonidan, o'quvchi-talabalarning o'z nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydigan fikrlarini qabul qilsa va muhokamaga kiritsa, talabalar materialni yaxshiroq idrok etadilar.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasining «Ta'limgan to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» mazmunida «...ta'limgan muassasalarining moddiy-teknika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash» kabi dolzarb vazifalarni ijobjiy hal etish lozimligi alohida ta'kidlab ko'rsatilgan.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida uzluksiz ta'limgan tizimi muassasalari o'qituvchilarining zamонавий та'limgan texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'limgan jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'limgan jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondoshuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muxamedov O'.X. Ta'limgan tashkil etishda interfaol metodlar: O'quv-uslubiy tavsiyalar/ О'.Х.Мухамедов, М.Н.Усмонбойева, С.С.Рустамов. – О'R IIV Akademiyasi, 2016, – 45 b.
2. Джумаева Н.И. Русский язык. Учебное пособие. Международная исламская академия, Ташкент. Издательство: ТИТПЛ, 2020. – 108 с.
3. Ермолаева М.Г. Интерактивные методики в современном образовательном процессе. М.: Просвещение, 2014.